

***BO'LAJAK TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINING KREATIVLIK
QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH.***

Termiz davlat pedagogika instituti 1-kurs talabasi.

32

Annotatsiya. Ushbu maqolada *bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish* metodikasiga oid mulohazalar bayon yetilgan.

Kalit so'z: texnologiya, kasb, kompetensiya, innovatsiya, ta'lim, axborot, mutahassis, ishlab chiqarish, tadqiqot, tarbiya, kreativ, innovasiya.

Abstract. This article contains comments on the methodology of developing the creative abilities of the future technological education teacher.

Key words: technology, profession, competence, innovation, education, information, specialist, production, research, education, creative, innovation.

Абстрактный. В данной статье содержатся комментарии к методике развития творческих способностей будущего учителя технологического образования.

Ключевые слова: технология, профессия, компетентность, инновация, образование, информация, специалист, производство, исследование, образование, креатив, инновация.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish g'oyasini ilgari surgan davrning o'zidayoq, ilm-fan, ta'lim-tarbiyaga alohida urg'u bergan edi.

Yurtimiz qadim zamonlardan boshlab o'zining ilm-fan sohasidagi yutuqlari bilan jahon tamaddunining rivojiga ulkan hissa qo'shib kelgan. Birinchi va ikkinchi Renessans davri aynan mamlakatda boshqaruv tizimining izchilligi hamda ilm ahliga ko'rsatilgan alohida e'tibor tufayli yuzaga kelgan. Bugungi kunda yuksak yuksak malakali muallim va murabbiylar, professor-o'qituvchilar, haqiqiy ziyolilarga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

“Kreativlik - insoniyat necha ming yillik tadrijiy rivojlanishi davrida alohida kishilarning ilm-fanda erishgan oliy ne'mati bo'lib, bugungi kundagi insoniyat yaratayotgan barcha moddiy hamda ma'naviy boyliklar esa ana shu oliy ne'matning u yoki bu ko'rinishidir”. Fanlar ko'p asrlar mobaynida to'plangan bilimlarning yozma majmuasi bo'lib, u bashariyatning tabiatni o'z ehtiyojlari yo'lida faol suratda o'zlashtirishi va o'zgartirishi natijasida vujudga kelgan.

Shaxs umumlashtirilgan hilma-hil sifatlar tizimida ko'rinadigan insonning psixik, ma'naviy mohiyatidir.

Bunday sifatlar tizimiga quyidagilar mansub:

- inson xislatlarining ijtimoiy ahamiyatga molik sifatleri yig'indisi;
- dunyoga bo'lgan va dunyo bilan, o'ziga va o'z-o'zi bilan munosabatlari tizimi;
- ijtimoiy vazifalar, axloqiy ko'rinishlar yig'indisini amalga oshiradigan faoliyat tizimi;
- dunyoni va undagi uzun anglashi;
- ehtiyojlar tizimi;
- qobiliyatlar, ijodiy imkoniyatlar yig'indisi;
- tashqi sharoitga bo'lgan e'tiborlar yig'indisi.

Innovatsion faoliyat tushunchasi. Hozirgi vaqtda «Innovatsiya tushunchasi» juda keng qo'llanilmoqda. Innovatsiya so'zi inglizcha so'z bo'lib-«innovatsion» yangilik kiritish degan ma'noni bildiradi, ya'ni tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, deb ta'riflanadi. Innovatsiya amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy ob'ekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy sub'ektlarning harakat tizimidir. Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib, ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo'ladi. Shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Innovatsiya - ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni echish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan muvaffaqiyatga erishishiga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir.

Ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- faoliyat yo'nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi)
- kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra (lokal, modulli, tizimli)
- kelib chiqish manbaiga ko'ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan)

Innovatsiyalar odatda bir necha muammo kesishgan paytda vujudga keladi va umuman yangi masalalarni hal qiladi, pedagogik jarayonning uzluksiz yangilanib borishga olib keladi.

«Yangiliklarni joriy qilish» tushunchasi bizningcha, yangilik, ham ana shu yangilikni amaliyotga joriy etish jarayonidir.

Yangilik - bu alohida olingan shaxs uchun yangi bo'lgan g'oyadir, bu g'oya ob'ektiv ravishda yangi yoki yangi emasligi ahamiyat kasb etmaydi, biz uni vaqt bo'yicha - yangilik ochilgan payt yoki undan birinchi marta foydalanilgan paytda aniqlaymiz.

Shu sababli «novatsiya» va «innovatsiya» tushunchalari mavjud bo‘lib, ular o‘rtasidagi asosiy farqlarni ko‘rsatib o‘tish zarur. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko‘lami asos bo‘lib xizmat qiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli bo‘lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lmasa, o‘z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba’zi elementlarini o‘zgartirishni vazifa qilib qo‘ygan bo‘lsa, u holda biz novatsiya bilan muloqot qilayotgan bo‘lamiz. Agar faoliyat ma’lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo‘lsa va uning natijasi o‘sha tizim rivojlanishiga yoki uning prinsipial o‘zgarishiga olib kelsagina innovatsiya deya olamiz.

Innovatsion jarayon - innovatsion o‘zgarishlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni amalga oshirish jarayoniga aytiladi.

Innovatsion jarayon - bu pedagogik yangiliklar, bu yangiliklarning pedagogik hamjamiyat tomonidan o‘zlashtirilishi va ulardan ilmiy asosda amaliyotda samarali foydalanishning o‘zgarib boruvchi yaxlitligidir.

Ta’lim jarayonidagi innovatsion o‘zgarishlar - ta’lim tizimiga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o‘qituvchi faoliyatini yangilash va o‘zgartirish orqali amalga oshirilishi ham atroflicha o‘rganilgan.

Innovatsion faoliyat - bu uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo‘lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi.

Pedagogik tajribalarning rang-barangligini novatorlik hamda tadqiqotchilik orqali ko‘rish mumkin. Bunda o‘qituvchi amaliy faoliyatdan nazariy tahlil va umumlashtirishga o‘tadi. Bunday yondashuvlarda mamlakat ta’lim tizimiga xos bo‘lgan innovatsion qarashlar va usullar o‘z ifodasini topadi.

O‘tilgan mavzudan ma’lumki, pedagogik innovatsiyalar o‘zining muayyan tavsifiga ega. Pedagogik innovatsiyalarning bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ faoliyatini shakllantirishga xizmat qiladigan o‘lchovlari quyidagilardan iborat:

- innovatsion usullarning yangiligi,
- optimalligi,
- yuqori natija berish imkoniyatiga egaligi,
- ommaviy tajribada ijodiy qo‘llash imkoniyatiga egaligi kabilar.

Innovatsion usullarning asosiy o‘lchovi ularning yangiligi, ilmiy tadqiqot natijalari hamda ilg‘or pedagogik tajribalar bilan tengligidir. Shuning uchun ham innovatsion jarayonda faoliyat ko‘rsatishni istovchi o‘qituvchilar uchun yangilikning asosiy mohiyati nimadan iboratligini bilish muhim ahamiyatga ega. Agar bir o‘qituvchi uchun mazkur tajriba tamoman yangi hisoblansa, ikkinchisi uchun yangi bo‘lmasligi ham mumkin. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilar uchun ham ayni bir usulning yangilik darajasi turli-tuman bo‘lishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchilar ham,

bo'lajak pedagoglar ham innovatsion ijodiy faoliyatga ixtiyoriy tarzda o'z ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda kirishishlari lozim. Bu, o'z navbatida, ularning shaxsiy o'ziga xosliklari, individual-psixologik xususiyatlari bilan bevosita bog'liqdir.

Pedagogik innovatsiyalar samaradorligining o'lchovi sifatida optimallik o'qituvchi va o'quvchilarning kafolatlangan natijaga erishishi uchun kuch-quvvat sarflashlarini taqozo etadi. Turli o'qituvchilar va o'quvchilar o'zlarining shaxsiy pedagogik hamda o'quv faoliyatlari jarayonida turlicha darajadagi samaradorlikka erishadilar.

Xulosa o'rnida shuni takidlash joizki tashxislash asosida pedagogik innovatsiyalarni o'rganishda har bir o'qituvchi tajribasida ijobiy, rivojlantiruvchi holatlar bilan bir qatorda salbiy ko'rinishlar ham mavjudligini hisobga olish zarurligini unutmaslik kerak. Yosh o'qituvchi ta'lim muassasasida samarali faoliyat ko'rsatishi uchun uning ish tajribasida mavjud bo'lgan ijobiy hamda salbiy jihatlarni tashxislash asosida yaqqol ko'rsatish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Gadaymuratov, Sh. M. (2022). Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Talqin va tadqiqotlar. 2022. 5.2023y
2. Gadaymuratov, S. (2023). SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA KASB - HUNARGA YO'NALTIRISH ISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *Interpretation and Researches*, 2(1). Извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/1010>
3. Eshpulatova Jang'Il Eshonqulovna, . (2023). METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF CREATIVE SKILLS OF PRIMARY CLASS STUDENTS. *International Journal of Pedagogics*, 3(03), 25–31. <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume03Issue03-05>
4. Zhangil ESHPULATOVA. (2023). CRITERIA FOR DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING ABILITY OF PRIMARY CLASS STUDENTS. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 1-5. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3218>
5. Sultonova, M., & Eshpulatova, J. (2024). BOSHLANG'ICH SINFLARDA DIDAKTIK O'YINLAR YORDAMIDA O'QUVCHILARNING

KREATIVLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH. *Research and Implementation*.
извлечено от <https://rai-journal.uz/index.php/rai/article/view/536>

6. Jabborova , B., & Eshpo'latova , J. (2024). BOSHLANG`ICH SINF O`QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI. *Research and Implementation*. извлечено от <https://rai-journal.uz/index.php/rai/article/view/466>

7. Mamayusupovich, G. S. . (2022). Professional Competence Development of Future Technological Education Teachers. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 1(9), 73–75. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/jiphr/article/view/288>